

Bolalar tarbiyasida mumtoz adabiyot namunalarining ahamiyati

Hamrakulova Xurshida¹, Jo'rayeva Sadoqat²

¹filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,

²Toshkent shahar 261-maktab ingliz tili o'qituvchisi.

xamrakulova.xurshida@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467058>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizda bolalar kitobxonligida muhim o'rin tutgan ikki asar – “Kalila va Dimna” hamda Kaykovusning “Qobusnoma” asarlari hamda ularda qalamga olingan ta'lim va tarbiya bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bolalar kitobxonligi, “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, axloq, ta'lim, tarbiya

Kirish

Farzand tarbiyasi Sharq adabiyotida alohida o'rin tutadi. Sharq ma'rifat maktabida “Kalila va Dimna”, “To'tinoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo'ston”, Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”, “Xamsa” turkumidagi dostonlari qa'tiga singdirilgan pand-nasihath tarzidagi hikmatlari, Xojaning “Gulzor”, So'fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” kabi durdona asarlarida inson ma'naviyati, tarbiyasi, kamolot bosqichida muhim o'rin tutuvchi didaktik hikoyatlar, purlhikmat ifodalar o'rin topganki, bu asarlar mutafakkirlarning farzand tarbiyasiga be'e'tibor bo'lmaganini ko'rsatadi. Bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishida shubhasiz Sharq adabiyoti o'lhovsiz ta'sirga ega.

Material va metodlar

Ushbu maqolani yoritishda mumtoz adabiyotning nodir namnlari bo'lgan “Kalila va Dimna”, Kaykovusning “Qobusnoma” kabi kitoblardan hamda S.G'aniyevaning “Abadiyatga daxldor yodgorlik” nomli maqolasidan foydalanildi. Maqola qiyosiy-tarixiy, analitik, sotsiologik tahlil metodlari bilan yoritildi.

Natijalar va ularning tahlili

“Kalila va Dimna” sharq didaktik adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega, o'zi kabi didaktik asarlarning yaratilishiga asos bo'lgan mumtoz asar hisoblanadi. “Kalila va Dimna”ning tarjimoni atoqli adabiyotunos olima Suyima G'aniyevanin ta'kidlashicha, asar qadimgi hinf faylasuflari tomonidan yozilgan. Aslida hind folklori asosida yaratilgan “Kalila va Dimna”ning “Panchatantra”, “Xitopadeshe”lar bilan ildizi bir. “Kalila va Dimna” VI asrda Eron shohi Anushiravon davrida Hindistondan Barzuya hakim tomonidan yashirincha keltirilgan bo'lib pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima yo'qolib ketgan, ammo paxlaviy tilidan suriya tiliga qilingan tarjima nodir yodgorlik sifatida saqlangan. “Kalila va Dimna” abbosiylar xalifaligi davrida Ibn al Muqaffa tomonidan arab tiliga tarjima qilingan va dunyo xalqlariga ana shu tildagi tarjima tarqalgan.

X-XII asrlarda “Kalila va Dimna” Ibn al Muqaffa tarjimasi asosida suriya tiliga, yunon, slavyan, yaudiy va lotin tillaria tarjima qilinadi. Lotin tilidagi tarjima asarning boshqa G'arb tillariga tarjima qilinishiga asos bo'ladi.

S.G'aniyeva asarning rus tiliga tarjimasi I.Y.Krachkovskiy va uning shogirdi T.P.Kuzmin tomonidan amalga oshirilgani, asar Y.E.Bertels so'zboshisi bilan 1957-yilda nashr qilingani xaqida ma'lumot beradi [1. 3-4].

Arab va suriya tiliga tarjimasidan so'ng Rudakiy tomonidan X asrda she'riy yo'l bilan, XII asrda Nizomiddin Abul Maoliy Nasrulloh nasriy yo'l bilan fors-tojik tiliga o'giradilar.

Husayn Voiz Koshifiy Husayn Boyqaro topshirig'i bilan fors tiliga qayta tarjima qilib, uni “Anvori Suhayliy” deb atagan bo'lsa, boburiy Akbarshohning vaziri Abul Fazl bin Muborakshoh tomonidan “Anvori Suhayliy” til va uslub jihatdan qayta ishlanadi va soddalashtirilib “Iyyori donish” deb nomlanadi. XVI asrda bu asar fors tilidan turkiy tilga “Humoyunnoma” deb tarjima qilinadi va katta shuhrat qozonadi.

XIX asrda Qozonda Gabdalgallam Fayzxon o'gli asarbchadan tatarchaga tarjima qiladi

“Kalila va Dimna” o'zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Asarning birinchi tarjimasi XIII asrga to'g'ri keladi. Asar tarjimoni Iftixoriddin Muhammad Bakriy. XVIII asrda Mulla Temur tomonidan “Anvori Suxayliy” asosida qilingan tarjima “Osori Imomiya” deb atalgan. XIX asrda Olloqulixon hukmronligi davrida Mulla Muhammad Niyoz tomonidan forschadan o'zbekchaga tarjima qilinadi. 1898-yilda Almaiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima xalq orasida ko'p shuhrat tutadi. Almaiy taijimasi qisqa muddat — 1901-1913-yillar ichida uch marta toshbosmada nashr etiladi.

“Kalila va Dimna” tarixini chuqur bilgan va tarjimalarini qiyoslab o'rgangan olima S.G'aniyeva eron va ozarbayjon tarjimalariga asoslanib kitobni o'zbek kitobxonlariga taqdim qilgan.

Hind faylasufi Beydabo podshoh Dobshalimga “Kalila va Dimna” asarini taqdim qiladi. Asar qushlar va hayvonlar tilidan naql qilinadi. Mumtoz adabiyotda obrazlarning majoziy tarzda aks etishi ham shu asar bilan bog'liq.

Iskandarga qarshi kurashgan Hind shohi Forek mag'lub bo'lgach, Iskandar podshoh qilib ko'targan shohni Iskandar ketgach, taxtdan tushirgan

hindlar uning o'rniga shahzoda Dobshalimni shoh qilib ko'taradilar. Ammo Dobshalim o'z xatti-harakatlari bilan ko'pchilikning xafsalasini pir qiladi. Shunda faylasuf Beydabo uni to'g'ri yo'lga solish uchun jonini xatarga qo'yib unga ta'sir qiladigan so'zlar aytadi.

“Senga davlat va lashkar meros qoldi, lekin zimmangga tushgan vazifani uddasidan chiqmayapsan, hokimiyatni qolga olgan shohlardan talab etilgan qonun-qoidaga rioya qilmayapsan. Yo'q, sen haddingdan oshding, zulm qilmoqdasan, mag'rurlanding, raiyatga haqorat ko'zi bilan qarab, unga yomonlikni ravo ko'rasan, jabr-zulmingning son-sanog'i yo'qdir. Holbuki, senga munosib bolgan sharaflı vazifa — o'z ajdodlaring yolidan, sendan avval otgan shohlarning yolidan bormoq, senga meros qolgan savob ishlarni davom ettirmoq, nomingni bulg'aydigan ishlardan qo'l tortmoq edi. Sen o'z raiyating dodiga quloq berishing lozim, ular uchun shunday qonunlar joriy qilmog'ing kerak ediki, bu qonunlar xotiralarda ilalabad yashasin, zamon olgan sari sening shuhratingni orttirsın: bu qonunlar abadiy sulh va adolat ramzi bolib qolsin.

Shuhratparastlik va mansabparastlikka berilib ish ko'rgan odam aqlli hisoblanmaydi. Mamlakatni adolat bilan idora etadigan odam aqlli va tadbirkor hisoblanadi. Shohim, sen yaxshilab oylab ko'r, aytganlarim senga og'ir botmasin. Axir, bu so'zlamı aytishdan maqsad sening in'oming yoki marhamatingdan umidvor bolmoq emas. Yo'q, men sening huzuringga vijdon azobini chekayotgan samimiy bir do'st sifatida keldim”[1.20]. Beydabodan g'azablangan Dobshalim uni bir muncha vaqt zindonga soladi, sal fursatdan keyin uni zindondan chiqarib avval aytgan so'zlarini yana qaytarishini so'raydi. Beydabo o'sha so'zlarni takrorlaydi. Aqlli Dobshalim bu so'zlarni o'ylab ko'radi va Beydaboni vazir qilib oladi. Shu tariqa yurtga adolat qaytadi. Bir kuni shoh Beydaboni huzuriga chaqiradi va unga shunday deydi:

— Ey, Beydabo! Sen hind faylasufisan, hind olimisan. Men o'zimdan avval o'tgan shohlaming hikmat xazinalari bilan tanishib, ko'p narsa tushundim. Men nomiga kitob bag'lashlanmagan va o'sha kitobda uning olib brogan janglari, hayoti, o'zining va saroy ahllarining fazilatları haqida biror narsa yozilmagan hech bir podsho topmadim.

Ularning ba'zilarini o'z donishmandliklarini ko'rsatmoq uchun shohlarning o'zlari yozganlar, ba'ziları esa faylasuflar tomonidan yozilgan. Ularning boshiga tushgan savdo, ya'ni olim mening ham boshimga tushadi, deb qo'rqaman. Olimga chora yo'qdir. Shunda mening xazinamda shohlar uni o'qib, mening kim ekanligimni va qanday ishlar qilganligimni bilib oladigan biron kitob topilmasa yaxshi bolmaydi. Istagim shuki, sen butun ilm-u hunaringni ishlatib, mening haqimda bir ajoyib kitob yozsang va unda xalqni qanday qilib idora etish va tarbiyalash lozimligini o'rgatsang, shohlarning axloqi qanday bolishini, raiyat bilan qanday munosabatda bolishi, raiyatning shohga qanday xizmat qilishi zarurligini bayon etsang, balki shunda men uchun davlat ishlarini boshqarish oson, raiyat uchun ham

yengil bolardi. Bu kitob kelajak asrlar uchun mendan yodgor bolib qolishini istar edim”. Beydabodan rozilik berib bir yil muhlat so'raydi, shoh yana gapini davom ettirdi.

“— Ey, Beydabo! Sen hamisha yuksak aqling, yuksak fazilating tufayli shohning amr-farmonlarini bajo keltirib nom chiqazgansan. Men seni yaxshi bilaman. Sen butun imkoniyat va qobiliyatingni ishga solib shunday bir kitob yozki, unda ham jiddiy va hazil-mutoyiba so'zlar, ham hikmat va falsafaga oid fikrlar mujassamlashgan bolsın, aqlli odamlar undan ham hikmat darsi olsınlar, ham kulgidan o'zlarini to'xtatolmasınlar”.

“Kalila va Dimna” — insonni komillika chorlovchi asar. Insonni komil sifatga erishtiruvchi qudrat bu so'zdir. Asarda so'z va uning hikmati bilan bog'liq talay o'rinlar mavjud. Asarda insonni hayvondan ajratib turadigan to'rt narsa — Beydaboning shohga bergan birinchi ta'limi edi — hikmat, aql, qanoat, adolat to'g'ri yashashning mezoni sifatida taqdim qilingan. To'rt xususiyat to'rt shartga amal qilish bilan voqe bo'ladi. “Ilm tahsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq — hikmatga; tadbir, sabr, nazokat, marhamat — aqlga; hayo, olijanoblik, o'zini qolga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq — qanoatga; to'g'rilik, va'daga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxshi xosiyatli bolmoq — adolatga tegishlidir”. Asar boshdan oxir mana shu falsafa asosiga qurilgan. Asarda keltirilgan hikmatlar va ularga bog'liq hikoyatlar podshohga qaratilgan bo'lsa ham, zamirida insoniyatga berilgan adabiy ta'lim edi. Hikmat haqidagi mana bu fikrlar o'zining qimmatiga ega:

“Hikmat — bitmas va tunganmas xazinadir, xaijlaganing bilan u kamaymaydi, asraganing bilan unga nuqson yetmaydi. Hikmat shunday liboski, kiyganing bilan eskirmaydi. U nihoyasi yo'q rohatdir”.

Kitobda so'z haqida ham fikrlar bor. Naql qilurlarkim, bir podsho maslahat uchun yoniga to'rt olimni chaqirib debdi: “Har biringiz shunday bi rhikmatli so'z aytingki, u tarbiyaning asosi bolsın”. Birinchisi aytibdi: “Donishmand odamlarga yarashadigan narsa so'zlamaslikdir!” Ikkinchisi: “Dunyoda eng foydalinarsa shuki, inson o'z aqli bilan maslahatiashmasdan so'z boshlamasin”, debdi. Uchinchisi aytibdi: “Inson uchun eng xayrli narsa o'ylamasdan so'zlamaslikdir. To'rtinchisi debdi: “Inson uchun eng tinchi shuki, u o'zini tole ixtiyoriga topshirsın [1.18]”.

Deydilarki, bir kun Xitoy, Hind, Eron va Rum podshohlari bir yerga yig'ilib: “Har birimiz shunday bir so'z aytaylikki, dunyo turguncha tursın”, deb shartlashibdi. Xitoy shohi debdi: “Men aytgan so'zimni qaytarib olishdan ko'ra, aytmagan so'zni og'izdan chiqarmaslikka harakat qilaman”. Hind shohi debdi: “Men o'z foydasini ko'zlab aytgan so'zi zarar bergan va o'zini halok qilgan odamga hayron qolaman”. Eron shohi debdi: “Og'zimdan chiqmagan so'zim — qulimdir, aytganim esa hojam”. Rum shohi debdi: “Men aytmagan so'zimdan hech vaqt pushaymon bolmaganman, aytganimdan esa juda tez-tez pushaymon bolaman. Shohlaming indamasligi

foydasiz va bemaʼni suhbatlardan koʻra yaxshidir. Inson har narsadan koʻproq oʻz tili tufayli baloga yoliqadi[1.18-19]”

Odam bu dunyoda uch narsaga intiladi, bu uch narsa esa toʻrt vosita bilan qolga kiritiladi. Bu uch narsaning biri — yaxshi turmush kechirmoq, ikkinchisi odamlar orasida yuksak mavqega ega bolmoq, uchinchisi — oxirat savobini topmoq uchun savobli ishlar qilmoqdir. Bu uch narsaga erishmoq uchun vosita bolgan toʻrt narsa quyidagilardir: halol mehnat bilan davlat toʻplamoq; qolga kiritilgan davlatni saqlay bilmoq; isrofga yol qotymasdan davlatini oʻzi, oilasi va aka-ukalari uchun xarjlamoq... Nihoyat, mumkin qadar oʻzini ziyonli ishlardan tiymoq. Bu toʻrt shartdan bittasini ham bajarmagan odam oʻz orzusiga yetolmaydi. Chunki odamning davlati bolmasa, u oʻzi yeb, boshqalami toydira olmaydi; agar davlati bolsa-yu, lekin uni rasamadi bilan xaijlamasa, sal oʻtmasdan bu davlat yoʻq bolib ketadi. Shuning uchun debdurlarki, mol-davlatni qolga kiritishdan koʻra uni xaijlash qiyindir...

Asar voqealari Hind rojasining braxmandan “xoin odamning yolgʻonchiligi, boʻhtonlari natijasida ikki doʻst orasidagi sadoqat adovatga aylanib, bir-birlaridan ajralib ketishgan bolsin”, degan istagi bilan Kalila va Dimna haqidagi hikoyalarni boshlaydi. Bu bob “Sher va Xoʻkiz bobi” deb nomlanib Kalila va Dimna hikoyalari u bobga tegishlidir. Hikoyalarning avvali braxmanning uch oʻgʻliga kasb-hunar oʻrganish zarurligi haqidagi nasihati bilan boshlanadi.

Kitobning ikkinchi bobi “Chinkabutar, qargʻa sichqon, toshbaqa, va oxu bobi” boʻlib, roja braxmanga “samimiy doʻstlar haqida ularning sadoqat va birodarliklari toʻgʻrisida, bu sadoqat va qardoshlikning fazilati borasida” soʻzlab berishini istaydi.

Kitobning uchinchi bobi “Boyqush va qargʻa bobi” deb atalgan. Bu bob hikoyalari rojaning braxmandan dushman oʻzini zohiran yumshoq feʼli, tavozeqor, marhamatli va lutf-karamli qilib koʻrsatishiga qaramasdan, uning nayrangiga uchmaslik va aldanmaslik haqida bir hikoya aytib bersang” degan xohishiga koʻra tartiblangan. Bu bobda qushlarni oʻzlariga shoh saylash haqidagi mojarolar, u bilan bogʻliq hikoyatlar Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarini yozga tushiradi.

Toʻrtinchi bob “Maymun va Toshbaqa” deb nomalanib, rojaning braxmandan “Endi iltimos qilardim, mumkin bolsa, shunday bir hikoya soʻzlab bersangki, unda biron bir narsani qolga kiritmoq uchun harakat qilsa-yu, lekin maqsadga yetgandan keyin begʻamlik qilib uni qoldan berib qoʻygan bolsa” degan iltimosiga koʻra hikoyalardan tartiblanadi.

Beshinchi bob “Zohid va larcha bobi” deb atalgan. Unga koʻra rojaning “Endi shunday bir hikoya aytib berki, unda doimo shoshiladigan, ishning orqa-oʻngini oʻylamasdan harakat qiladigan bir odamning ahvoli tasvir etilsin va uning oqibati nima bilan tugashi koʻrsatilsin” degan iltimosiga koʻra hikoyalar aytib beriladi. Oltinchi bob “Mushuk va kalamush bobi” deya atalib roja har tomondan oʻrab olgan dushmanlar hujumiga duchor bolib, olim, jar yoqasida qolgan va

oʻzini qutqarish uchun dushmanlarning biri bilan doʻstlashgan, u bilan ahd-paymon tuzib, oʻz jonini qutqarib qolgan kishi tasvir etilgan” hikoyalarni eshitish istagi bilan paydo boʻladi. Shu tariqa kitobdagi oʻn toʻrt bobning har biri muayyan istak bilan paydo boʻlgan. Va hikoyalar hayotiy hikmatlarga toʻla syujetlardan iboratdir. Kitobning birinchi bobi Kalila va Dimna otliq shaqallar nomi bilan bogʻliq boʻlgani uchun xalq orasida shu nom bilan mashhur boʻlgan. Yana bir sababi bu bobda kuchli intirigalarga sabab boʻlgan oʻtkir syujetlar ham borki, oʻquvchi hech bir uzilishsiz asarni qiziqish bilan oʻqib chiqadi.

“XI asrning 82–83-yillarida Gʻarbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar oʻz oʻgʻli Gilonshohga bagʻishlab “Nasihatnoma”sini yaratadi va oʻsha davr anʼanasiga koʻra uni bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi.

“Qobusnoma asrlar mobaynida Gʻarb va Sharq mutafakkirlarining eʼtiborlarini oʻziga jalb qilib kelgan: 1702-1705-yillarda turk tiliga, 1786-87-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uygʻur tiliga, 1881-yilda qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilindi. 1935-yilda Tehron dorilfununining professori Said Nafisiy “Qobusnoma”ni Tehronda chiqardi”[2.4].

1860-yilda “Qobusnoma” Ogahiy tomonidan oʻzbek tiliga birinchi marta tarjima qilindi. “Qobusnoma”ga soʻzboshi yozgan Ulugʻbek Dolimovning xabar berishicha, Ogahiy tarjimasining qoʻlyozma nusʼhasi OʻzRFA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida va Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda. Asarning oʻzbek tiliga sodda tabdilini adabiyotshunos olim Subutoy Dolimov Ogahiy tarjimasining qoʻlyozmasidan va E.Bertelsning rus tilidagi tarjimasi hamda Said Nafisiy tomonidan tayyorlangan Tehron nashridan foydalanib amalga oshirgan.

Kitobning yozilish sababini Kaykovus shunday izohlaydi: “Ey farzand, sena zamona sitamining qoʻli yetmasdan burun hushing quloqi birla mening soʻzimni eshitgil va pandlar bila ikki jahonda nom chiqargʻil. Mening soʻzimni eshitmoqdin ibo qilmagʻil. Agar mening soʻzimni qabul qilib, undan bahra olsang, oʻzgalar dogʻim(yanada) qabul qilurlar va unga yarasha ish shundogʻdurki, hech farzand otasining pandin qabul etmagʻusidir, nedinkim yigitlar gʻaflat yuzidin oʻz botinida oʻzlarini birdan-bir donish fahm qilurlar va oʻz donishlarini qarilarning donishidin afzal bilurlar. Garchi bu soʻz menga maʼlumdiur, lekin otalik mehri meni xomush boʻlurga qoʻymadi. Shul vojib bir qancha pandlarni oʻzum yaratdim va uni qirq toʻrt bobga jam qildim, har bobida bir necha soʻz zikr etdim”[2.13]. Shu tariqa Kaykovus oʻzining hayotiy tajribalarini, turmushda koʻrgan-kechirganlarini, oʻqigan va uqqanlarini oʻgʻli Gilonshohga pand-nasihati tarzida bayon etadi. Kaykovus oʻz otalik shartini bajo keltirilishini Gilonshohning nasihatlarini qabul qilishida deb biladi. Inson dunyodan orttirgan eng yaxshi narsasini yaqinlariga qoldirib ketadi, Kaykovusning nazarida

eng yaxshi narsa uning pandlari edi. Shuning uchun bu pandlarni o'g'liga meros qoldirishni afzal ko'radi. Kaykovus inson nasabi va asliga mos bo'lishini avvalgi nasihatlarida bayon etadi. ***"Aslingning qadru-qimmatini bil va asli kam odamlardan bo'lmagil"*** deya uqtiradi. ***"Bu jahon bir zirotgohdir, har nima eksang, shuni o'rasan va har na so'z desang, shuning javobini eshitasan"*** deya uqtirgan ota dunyoni "joyi foniy" ekanligini ta'kidlab o'tadi. Kitobning dastlabki uch bobi Allohni tanish, payg'ambarlar xilqati zikri va Haq taoloning shukrguzarligi ta'rifiga bag'ishlangan. Shu tariqa qirq to'rt bobning har biri hayotiy bir hodisaning inson hayotiga ta'siri masalasi hususida bahs etadi. Muallif har bir fikrni keltirar ekan. Uning asosi uchun muayyan bir hikoyatni keltiradi. Shunday qilib kitob faqat pand-nasihatlar majmuasi bo'libgina qolmay, o'zida bir necha didaktik hikoyatlarni jamlagan mumtoz adabiy asarga aylangan.

Kitob faqat otaning o'g'liga nasihat deb emas, balki butun insoniyat undan ibrat olishi va hayotiga tatbiq qila olishi kerak bo'lgan hayotiy zarurat deb bilishi lozim. Bu o'rinda so'z haqida quyidagi fikrlarini misol sifatida keltirish joiz:

1. Hech kishining oldida ifrot (haddan oshish) qilmag'il va ifrotni shumliq deb bilgil. Har ishda miyona (o'rtacha) bo'lg'il, so'z aytmog'da va ish qilmoqda...

2. Xaloyiqning orasida bir kishining qulog'iga so'z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so'z garchand yaxshi bo'lsa ham, tashqarisindin uni yomon so'z deb gumon qiladilar va ko'p odamlar bir-biridan darg'umon bo'ladilar.

3. Gar so'z demoqchi bo'lsang, shunday so'z degulki, so'zingning rostlig'iga guvohlik bersunlar.

4. Har so'zni andisha bilan boshlag'il, toki aytg'on so'zingdin pushuaymon bo'lmag'aysan.

5. Sovuq so'zlik bo'lmagil.

6. Ko'p bilib oz so'zlagil va kam bilib ko'p so'zlamagil.

7. Yolg'on va behuda so'z aytmak devonalikning bir qismidir. Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotg'il. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z degulki, unga xush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin.

Shuningdek, ***"Anushervon pandlarini yod olmoq zikrida"*** deb nomlangan sakkizinchi bobida Anushervon aytgan o'ttiz uchta nasihatni keltiradi. Aslida bu Anushervonga nisbat berilgani Kaykovusning ham tanbehlari edi.

Muallif taom yemak odobi, mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq odobi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etadi:

1. "Ey farzand, bilgilkim, har kun begona odamlarni mehmon qilmag'il, nedinkim, har kun mehmon olsang, mehmonga loyiq ishlarni ko'ngul muredicha qila olmag'ungdir.

2. Har vaqt mehmonlaring uyingga oyoq qo'ysalar, sen barcha odamlaring bila ularning oldilariga chiqqil va yaxshi so'z bila muloqot qil, to ular sening shukringni aytsinlar.

3. Agar meva vaqti bo'lsa, taom yemasdin avval meva kelturg'il, to bahuzuridil yesunlar.

4. Mehmondil bo'lg'il va mehmonga ta'na qilmagil, har vaqt ochiq yuzlik bo'lg'il, toki har kishikim mehmoning bo'lsa, shodlik bila taomingni yesin.

5. Agar mehmon bo'lsang, har kishinikiga mehmon bo'lib boravermagil, chunki hashmat shavkatingga ziyon yetkarursan. Agar mehmon bo'lub borsang, ko'p och bo'lub bormag'il va tez yurub bormag'ilkim, taom yemakdin ma'zur bo'lub borsang, mezbos ozor topar. Agar taomni ko'p yesang, ko'ziga yomon ko'rinar.

"Ota-ona haqini bilmak zikrida" deb nomlangan beshinchi bobda "sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur. Daraxtni qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo'lur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur"[2.25] kabi farzand tarbiyasi bilan bog'liq qimmatli fikrlar borki, bu kabi hikmatli ifdalar kitobning asrlar osha yetib kelishiga sabab bo'lgan. ***"Agar molsizlidan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa say' ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'ondin, aq bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nediknkim aql bila mol jam etsa bo'lur, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas"***. ***"Bas aar aqling bo'lsa, hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir"***.

"Hunar afzunlig'i bila baland qadr va oliy tab' bo'lmoq zikrida" deb nomlangan oltinchi bobda hunarning afzalligi, so'z va til, yaxshilik qilmoq xususida fikr bildiriladi. "Ey farzand, ogoh bo'liki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' yetkurmas. Bilursanki xori mug'ilon (tikanli buta)ning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur"[2.26]. Shu tariqa mana shu bobda so'z xususida ham qimmatli fikrlar bildiriladi. "...tilingni yaxshi hunar bila o'rgatgil va muloyim so'zdan boshqa narsani odat qilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatgil, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki undan hunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim". "Ammo so'ralmag'on so'zni aytmag'il va behuda so'zdan parhez qilg'il, har bir so'zni so'rasalar, rost aytg'il. Sendan talab qilmasa kishig'a nasihat qilmag'il, pand bermagil, xususan seni tinglamagon kishiga hech so'z dema, chunki bunday kishilar pandni eshitmag'aylar. Ko'p kishining orasida bir kishig'a pand-nasihat qilmag'il". "Agar biror kishi kajlik(qing'irlik, yolg'onchilik)ka odat qilg'on bo'lsa, uning yoniga bormagilki, u hargiz rost so'zlamas. Nedinkim, bir daraxt egri bo'lsa, to uni chopib yo'nmaguncha, u to'g'ri bo'lmas"[2.27].

Asarda xaloyiq to'rt navga bo'lib beriladi: "Biri ulkim, bilur va bilg'onin ham bilur. Ul olimdur, unga tobe bo'lmoq kerakdur. Biri uldirkim, bilmas va

bilmag'onin bilur, ul qobildur, unga o'rgatmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilur va bilg'onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmak kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin ham bilmas, ul johildur, undan qochmoq kerakdur"[2.37].

Asarda 50 ga yaqin hikoyat boblar tarkibida kelgan bo'lib, bob mohiyatini ochishda, adib yetkazmoqchi bo'lgan fikrlarni mustahkamlashda qo'llanilgan. Har bir hikoyat o'zida muayyan mazmunni ifodalagan va ulardan pirovardida xulosalar chiqarilgan.

"Qarilik va yigitlik zikri sifatida" bobida (9-bob) qisqa bir hikoya beriladi. Unda odobsiz yigit hamda topqir va zukko qariya timsolida ularning qiyofasi ochib beriladi. "Undoq eshitibmankim, yuz yil yashag'on va qaddi yoydek xam bo'lg'on bir qari 9-bobkishi qo'liga aso tutib borur edi. Bir yigit uni masxara qilib dedi: "Ey shayx, ushbu yoyni necha tangaga olding? Aytg'il, to men ham olurman". Shayx dedi: "Agar umr topsang va sabr qilsang, bu yoyni senga tekinga berurlar"[2.46].

"Do'st tutmoq zikrida" deb nomlangan 28-bobda do'stlikni mahkam tutish haqidagi fikrlari ahamiyatlidir:

1. Har kishi do'stlarni yod qilmasa, do'stlar ham yod qilmagusidur va ul kishi hamisha do'stsiz qolgusidur.

2. Hamma vaqt do'st tutmoqni odat qilg'il, zeroiki, har kishining do'sti ko'p bo'lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko'payur.

3. Har vaqt yangi do'st topsang, ko'hna do'stlarni tark etmag'il va ulardin yuz o'gurmagil, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsun.

4. Yaxshi do'st kishiga ulug' ganjdur.

5. Do'stlarning do'stlari ham do'stlaringdur. Ehtimolki, uning o'sha odamga do'stlig'i sening do'stligingdin ko'proqdur. Agar do'sting sening dushmaningni sevsa, bunday do'stdan ehtiyot bo'l, nedinkim, bunday do'st dushman tarafidin senga yomonlik qilishdan ham andisha qilmag'ay. Sening do'stingga dushman bo'lg'on do'stdin ham parhez qilg'il.

6. O'zingga loyiq do'st axtargil.

7. Agar do'stingning ko'ngli hech gunohsiz sendan qolsa, uni qaytib kelurga mashg'ul bo'lmag'il, nedinkim, ta'magir, kekchi do'stdin uzoq bo'lg'il, uning do'stligi haqiqiy ermasdur, balki ta'ma uchundur.

"Javonmardlik haqida" berilgan qirq to'rtinchi bobda muallif qanoat hususida fikr bildirib quyidagi keltiradi:

"Shundoq eshitibmanki, shayx Shibli bir kun bir machitga bordi va ikki rakat namoz o'qib, biroz vaqt osoyish topdi. Ul machitda yosh o'g'lonlar jam bo'lib, kitob o'qir erdilar. O'g'lonlarning taom yeydig'on vaqtlari bo'lib qoldi. Bularning orasida bir boyning o'g'li ham bor erdi va bir faqirning ham o'g'li bor edi. Boyning o'g'li unga dedi: "Agar halvo yemak tilasang, mening itim bo'l, shundin so'ng halvo berurman". Faqirning o'g'li dedi: "Men sening itingman". Boyning o'g'li dedi: "Shundoq bo'lsa, itdek hurg'il". U bechora it yanglig' hurdi, shundin keyin boyning o'g'li bir bo'lak halvo berdi. U har vaqt

itdek hurardi va bir bo'lak halvo olardi. Shayx Shibli har vaqt ularga qarab yig'lar edi. Bir kuni muridlari undan so'radilar: "Ey shayx, ne vajdin yig'larsan?" Shayx dedi: "Ko'ringlarki, beqanoatlik va tamagirlik odamning boshiga na savdolarni solur. Agar bu o'g'lon quruq nonga qanoatli bo'lib, undin halvo tilamasa edi, o'zidek bir o'g'lonning iti bo'lmasdi"[2.164].

"Qobusnoma" Sharq adabiyotida didaktik mezonlar aks etgan asardir.

Xulosa

"Kalila va Dimna" xalq donoligi aks etgan adabiy-badiiy qoliplovchi asar hisoblanadi. Asarda ko'p hikoyatlar keyinchalik boshqa didaktik asarlarga ko'chib o'tgan. Masalan Kalila aytan maymun va duradgor haqidagi hikoyasi", toshbaqa bilan chayon haqidagi hikoyalar Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida "Maymun va najjor" nomi bilan, Dimna tomonidan aytilan toshbaqa va chayon haqidagi hikoya "Toshbaqa va Chayon" nomi bilan uchraydi.

"Kalila va Dimna"da o'ndan ortiq bolalarbop hikoyatlar uchraydi. Ular orasida o'z makr-xiylasi tufayli halok bo'lgan baliqchi qush va qisqichbaqa, quyonning xiylasiga uchib, quduqqa kalla tashlab halok bo'lgan sher, uch baliq, tovuq va lochin, sodda va xiylagar, suvoriy va ilon haqidagi hikoyalar, qarg'a, sichqon, kabutar, toshbaqa va ohu masali shular jumlasidandir. Bularning ko'pi allaqachon xalq ehtaklariga aylanib ulgurgan.

Mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik hikoyatlardan tuzilgan "Qobusnoma" asari kitobning o'qishli bo'lishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Kalila va Dimna. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
- [2]. Kaykovus. Qobusnoma. O'zbekiston Respublikasi Matbuotni qo'llab quvvatlovchi Jamg'armaning "Istiqlol" noshirlik markazi. Xalqaro Sharof Rashidov Jamg'armasi. – Toshkent, 1994.